



ON SOME SIMILAR AND DIFFERENT ASPECTS OF PROVERBS AND SUBJECTS

Mansur Xamidov

TerDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi

o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi

mansurimomali1991@mail.ru

+998996709196

ABSTRACT	KEYWORDS
In the article, the opinions of scientists and personal observations about the similar and different aspects of proverbs and metal, as well as related phenomena, were highlighted.	A dialect-specific proverb, adage-proverb-phrase.

Introduction

Bugungi kungacha amalga oshirilgan paremiologik birliklar tadqiqida maqol va matal, ibora va matal, idioma va ibora kabi dixotomiyalarning farqli va o'xshash jihatlariga ahamiyat berilgan. Ularni barqaror birliklar sirasida maqol va matalga ajratib alohida til va nutq birligi sifatida o'rganish borasida professor B.Mengliyev qimmatli fikrlarni qayd etadi: "Matal ham mavjudlik jihatidan barqaror birikma holida bo'ladi, matal deganda to'g'ri ma'no ifodalaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo'lmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi. **Qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi yerga yetganda (tekkanda), dumi xurjunda, ali desa, vali deydi, berdisini aytguncha** kabi matallarga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi. Masalan, Berdisini aytguncha jim tur (urib o'ldirma), tuyaning dumi yerga yetganda (tekkanda) qarzini to'laydi". **"Berdi"sini aytguncha urib o'ldirmoq.** BB ba'zi manbalarda ibora sifatida ham qayd etiladi. Var. **"Ollo" deguncha urib o'ldirmoq.**

Z.Husainova matal atamasining "topishmoq" ma'nolari haqida fikr yuritir ekan, matal so'zidagi "t" tovushi "s"ga almashgan-almashmagani haqida aniq fikr yo'qligi haqida yozadi. Surxondaryo viloyatining ba'zi shevalarida "matal" termini "ertak" ma'nosini ham beradi. Bu terminlarga aloqador bo'lgan "naql" termini ham borki, bu ham mazmunan matal, masal va maqol terminlariga uyg'un, ya'ni "naql" arabcha ko'chirmoq, o'tkazmoq demakdir. O'zbek tilida ikki ma'noda keladi: 1) bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq; 2) maqol terminlariga ekvivalent.

Aholi o'rtasida etnografik, etnologik ahamiyatli quyidagi she'riy matn ham, umuman olganda, paremiologik tabiatiga ko'ra maqoldir:

Qatayān ham qātti: žāj, ortada žuz bomasa.

Tārtuvli ham zor edi, agārdā kām bomäsä.

Lekin hududlarda o'tkazilgan dala amaliyoti maqolni shaklan to'rtlikka o'xshash, vaznga (she'rga) solib aytiluvchi, ikki qismdan iborat bo'lgan mikromatn sifatida tushunish uni "matal" deb yanglish talqin qilishga yo'naltirganini isbotladi.

Professor B.Jo'rayeva "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari" monografiyasida maqol va matal orasidagi farqlarni yoritgan tilshunoslar fikrlarini tahlil qilar ekan, ularning aksarida matalni ibora deb yanglish tushunish borligiga izoh beradi: "Matalga xos bo'lgan birliklarni bir chetga yig'ishtirib qo'yib, frazeologik birliklarning matal termini ostida o'rganilishi olimlar tomonidan yo'l qo'yilgan chalkashlik natijasidir, xolos.

Z.Narmuratov "Ingliz va o'zbek tillarida "ta'lim", "ilm" konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi" dissertatsiyasida B.Jo'rayevaning fikrlariga tayangan holda o'zining quyidagi xulosalarini keltiradi: 1) maqol har doim aniq va tugal fikr anglatadi, matalga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi; 2) maqollar o'z va ko'chma ma'no ifodalash imkoniyatiga ega matallar lokal qo'llanilish chegarasiga ega; 3) matal nutqda ko'rsatish vositasi bo'lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi. Shu kabi O.Poyonova ham paremiologik birliklarga haligacha muqim bir chegara qo'yilmaganini ta'kidlaydi. Shuningdek, muammoga doir 20 ga yaqin olimlarning bir-biridan farqli qarashlarini keltirib o'tadi hamda maqollar va matallarda ifoda plani bir xil tabiatga ega emas, degan fikrni qayd etadi.

O.Poyonova maqol va matalni farqlar ekan, quyidagi qarashni yoqlaydi:

- maqollar doimo gap strukturasi (tuzilishiga)ga ega;
- matallar esa ham gap, ham so'z birikmasi shaklida bo'lishi mumkin; Mazmun plani (jihati) deganda motivlovchi, ya'ni leksik tarkibining murakkab o'zaro ta'siridan iborat ma'noviy strukturasi tushuniladi. Tadqiqotchi nafaqat maqol va matalni, balki ularga yondosh hodisa bo'lgan frazeologizmni ham farqlar ekan, bu uch tushuncha alohidalikka egaligi, maqol didaktikligi, ahloqiy-ta'limiy xarakterlanishi bilan, mantiqiy mulohaza va semiotik struktura, gap strukturasi mavjudligi kabi farqlovchi belgilar bilan frazeologizmdan ajralib turishini qayd etadi.

X.Doniyorov ibora va maqolni dialektal frazemalar sifatida qayd etadi: Gapning yomoni qanquv... (adabiy tilga muqobil varianti berildi – M.X.), Qorada ko'rsam, qornim to'q, bo'zlagan bo'taday, boshqorong'i bo'lmoq.

Biz yuqoridagi olimlar fikrlariga tayangan, umumlashtirgan holda Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalariga oid maqol va matallar misolida ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini quyidagicha izohladik:

Maqol	Matal
O'xshash belgilari	
Mazmuniy-grammatik jihatidan yaxlitlik	
Ma'lum bir o'zbek urug'ining nutqiga xoslanganligi	
Obrazlilik va ta'sirchanlik ahamiyatiga egalik	
Farqli xususiyatlari	
Mazmuniy-grammatik tugallanganlik (predikativ ma'no)	Qisqa, lo'nda, biroq tugallangan ohang va fikrga ega bo'lmaslik (nominativ ma'no)
Poli//monosemantik, shuningdek, o'z va ko'chma ma'nolarga egalik	Obrazlilik, reallikdan chekinilish, mubolag'a, tasviriylikka, ko'chma ma'noga egalik
Didaktik mazmunga egalik	Tasviriylilik

Maqol matal va iboradan, avvalo didaktik xususiyati, estetik vazifasi bilan farq qiladi va olamga munosabatning qisqa, aniq, ekspressiv talqini bilan keskin farq qiladi. Maqolning ifoda ko‘lami uning vazifaviy xossalarini oydinlashtirib keladi zero, tanlangan ifoda shakli va uslubi maqol bajaradigan: a) kommunikativ; b) bilish, v) regulativ, g) emotsional-ekspressiv, d) faktik (daliliy), ye) baholash va j) estetik vazifalarning amalga oshuvini ta'minlab beradi.

Maqol-matal-ibora uchligida lingvistik mutanosiblik va tafovutni aniqlashda qat'iy chegara qo'yish juda muhim. Bunda ayrim grammatik belgilar uchala toifa birliklarini to'g'ri farqlash imkonini beradi. Masalan, buni holni voqyellantiruvchi turkum formantlar bilan shakllangan birikmalar misolida kuzatish mumkin:

Janubiy Surxondaryo hududida yashovchi juz (yuz) urug'i nutqida ham vaqt bilan bog'liq **haš-paš degünčä, māma šāptali: žegunča** ifodasi mavjud. Sintaktik tahlil qilinsa, ushbu qurilma qachongacha?, qay vaqtga qadar? so'roqlariga javob bo'ladi va shu belgisiga ko'ra **berdisini oytquncha** va **ko'z ochib jumg'uncha** iboralari bilan semantik-vazifaviy ma'nodoshlikni hosil qiladi. Biroq qurilmaning moma shaptoli jeguncha qismi uni endi ibora emas, hududiy xoslangan obrazli ifoda, aniqrog'i – matal tarzida izohlashga asos bo'ladi. Demak, ibora – bir leksik ma'noga ega bo'lib, bir so'roqqa javob bo'luvchi obrazli barqaror ifoda. Matal esa bir so'roqqa javob beruvchi, biroq qiyos munosabatli ikki qismdan tarkib topuvchi hamda o'xshatish va o'xshatilmish ob'ektining hududiy xoslangan etaloni bilan qaror topgan birikmalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.102.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent, Tafakkur bo'stoni, 2018. – B.192.
3. Нармуратов З. Инглиз ва ўзбек тилларида “таълим”, “илм”, концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фанлари фалсафа д-ри...дисс. – Термиз, 2021. – Б. 31.
4. Поёнова О. Инглиз ва ўзбек тилларида “Оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри...дисс. – Самарқанд, 2021. – Б. 30-33.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 37.
6. Хусаинова З. Топишмоқ терминлари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1960, №3. – Б.32.